MEDIAMAKONDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHNING ZARURIYATI VA UNING O'ZIGA XOSLIGI.

Mazamqulov Eldor Maxammadqul o'g'li, Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
e-mail: eldormazamqulov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ishda mediamakonning yoshlar ma'naviy rivojiga ta'siri va uning ijobiy yo'nalishda shakllanishidagi roli yoritilgan. Globallashuv sharoitida yoshlarning axborot oqimiga nisbatan ongli munosabatini shakllantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etuvchi media kontentdan foydalanishning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: media, globallashuv, yoshlar, madaniyat, axnorot, internet va ijtimoiy tarmoq, media madaniyat, raqamli kommunikatsiya, milliy madaniyat, yoshlar ma'naviyati.

НЕОБХОДИМОСТЬ ПОВЫШЕНИЯ ДУХОВНОСТИ МОЛОДЕЖИ В МЕДИАМАКОНЕ И ЕЕ САМОБЫТНОСТЬ.

Аннотация. В данной работе освещается влияние медиамакона на духовное развитие молодежи и его роль в формировании позитивного направления. Обосновано значение использования медиа-контента, пропагандирующего национальные и общечеловеческие ценности, для формирования сознательного отношения молодежи к информационным потокам в условиях глобализации.

Ключевые слова: медиа, глобализация, молодежь, культура, информация, интернет и социальные сети, медиа культура, цифровые коммуникации, национальная культура, молодежная духовность.

HE NEED TO ELEVATE YOUTH SPIRITUALITY IN MEDIAMAKON AND ITS UNIQUENESS.

Annotation. in this work, the influence of mediamacon on the spiritual development of young people and its role in its formation in a positive direction are covered. The formation of a conscious attitude of young people towards information flow in the context of globalization, the importance of the use of media content promoting national and universal values is justified.

Keywords: Media, globalization, youth, culture, akhnorot, internet and social network, media culture, digital communication, National Culture, Youth spirituality.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. [1] Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 dan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli

o‘tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma’naviy barkamol bo‘lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo‘ladi. Davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Ushbu tashabbuslar orasida 3-tashabbus aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan; 4-tashabbus esa yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga yo‘naltirilgan.

Ana shu ezgu g‘oya bo‘yicha o‘tgan 5 yil ichida ulkan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, yoshlarni internetdagi zararli xurujlardan asrash, ularni axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishga o‘rgatish masalalariga ham alohida ahamiyat qaratildi. “Ta’lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasida tashabbuskor tadbirkorlarni jalb qilgan holda, kompyuter o‘yinlari markazlarini tashkil etish, ularda bolalar va yoshlarning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan test, viktorina, rivojlantirish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar bo‘lishi zarurligi ta’kidlandi”

Tadqiqot adabiyotlari va metodologiyasi.

Texnologiyalar asri va axborot makoni yoshlarga juda keng imkoniyatlarni yaratib berish bilan bir qatorda juda katta xavfni shakllantirmoqda. Bunday tahlikali zamonda yoshlarga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillardan biri bu-mediamakondagi turli xil zararli axborolarning ko‘pligidir. Bunga misol keltiradigan bo‘lsak, “shafqatsizlik, zo‘ravonlikni namoyish etuvchi, inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, bolalarga zararli ta’sir ko‘rsatuvchi va huquqbuzarliklar sodir etishga undovchi ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, adabiyotlarni tarqatish hamda filmlarni namoyish etish shular jumlasidandir”

Media jamiyatga ijobiy ta’sirini o‘tkazishi bilan birga yuqorida sanab o‘tilgan zararli omillarni yoshlar orasida keng quloch yoyishiga zamin yaratmoqda. Bunday zararli axborotlardan himoyalanish uchun yoshlar orasida axborot madaniyatini shakllantirish muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, bu tadbir o‘z navbatida jamiyatning axborot savodxonligiga juda katta ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi. Axborot olish madaniyati, ya’ni axborot savodxonligi bo‘yicha xorijiy mamlakatlarga nazar solinsa, kutubxonalar uyushmasida axborot savodxonligi masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. “Axborot savodxonligi” atamasi aynan mana shu e’tibor natijasida paydo bo‘lgan. Bundan tashqari, “axborot savodxonligi bo‘yicha milliy forumlar yaratilgan bo‘lib, yigirma beshtadan ziyod turli tashkilot va muassasalarni birlashtirgan” [2] Bugungi kunda jahonda tobora shiddat bilan kechayotgan tahlikali axborot jarayonlari ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga, jumladan, ma’naviy-ma’rifiy sohalarga ham jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. Bu borada, mamlakatimizda aniq maqsadga yo‘naltirilgan yoshlar ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli tashkil etish borasida samarali ishlar qilinmoqda. Yoshlar orasida ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ta’sirchanligini oshirish, ma’naviyat sohasidagi barcha tahdidlar hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali chora-tadbirlar qo‘llash, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda.

Hozirgi zamonda yoshlar asosan axborot iste’molchisi hisoblanadi. Ular avvalo, axborot tasnifini bilishi, ulardan foydalanish imkoniyatlarini to‘liq anglab yetishi lozim va uning salbiy oqibatlaridan o‘zini himoya qilish qoidalarini bilishligi zamon talabidir. Axborot asri insoniyatni dunyo hamjamiyatidan xabardor qilish bilan birgalikda undan noto‘g‘ri foydalanish tufayli ko‘plab jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Globallashuv jarayoni, dunyo geosiyosiy maydonidagi o‘zgarishlar va rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari jahon miqyosida keskin burilish yasamoqda. Turli mintaqalardagi qirg‘inbarot urushlar, sohta elektronik tarqatmalar, ma’naviyat, madaniyat va demokratiya tushunchalarining noto‘g‘ri talqinlari tez va oson tarqalishida axborot tizimi buzg‘unchilarga yaxshigina naf keltirmoqda. Bu

ayniqsa, yoshlar ma’naviyati ildizining yulinishi hamda yoshlar orasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning yemirilishi, insoniyat taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas’uliyatsizlik, andishasizlik kabi omillarning ildiz otayotganligi havotirlidir. [3]

Yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech ogʻishmasdan qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga koʻtaramiz. Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega boʻlib, dunyo miqyosida oʻz tengdoshlariga hech qaysi sohada boʻsh kelmaydigan insonlar boʻlib kamol topishi, baxtli boʻlishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, deb aytganida, yoshlar orasida har qanday xavfni keltirib chiqaruvchi omillarga qarshi kurashish nazarda tutilgan desak adashgan boʻlmaymiz. [4]

Hozirgi zamon yoshlari axborot dunyosida hayot kechirar ekan, buning oʻz navbatida ham ijobiy, ham salbiy xususiyatlari mavjuddir. Yoshlarning dunyo hamjamiyatidan xabardor boʻlishi, xorijiy konferensiyalarda ishtirok etishi, har qanday ma’lumotga bir zumda egalik qilishi va dunyoni kuzatib turishdek imkoniyatlarni insoniyatga axborot asri muhayyo qildi. Shu bilan birgalikda, insoniyat boshiga zararli omillarni olib kelmoqda. Misol uchun yoshlarning ta’limga e’tiborsizligi, asosiy vaqtlarini internet oʻyinlariga sarflashlari, loqaydlik, andishasizlik, beparvolik tushunchalarining tobora yoshlar ongida mustahkamlanib borishida internet tizimining oʻrni yetarlichadir.

Albatta, mediani ijobiy tomonlari ham koʻp. Butun dunyoda boʻlgani kabi yurtimizda ham ta’lim sohasiga zamonaviy qarash va texnologiyalarni jalb qilish rivojlanib bormoqda. Yoshlar faqatgina kitob va eski qoʻllanmalar bilan oʻqitilmasdan, zamonaviy oʻquv qoʻllanmalari bilan ta’minlash ortib bormoqda. Ta’lim dargohlari zamonaviy axborot materiallari bilan ta’minlanmoqda; zamonaviy kompyuterlar, monitorlar, elektron doskalar, elekron kutubxonalar va yuqori tezlikdagi internet tizimlari bilan ta’minlanmoqda. Yoshlarni internet tizimida ogʻishmasliklari uchun axborot soatlari va axborotdan foydalanish madaniyatiga doir keraklicha tavsiyalar berilmoqda.

“Zamonaviy axborot texnologiyalari yosh mutaxasislarga, texnik hodimlarga axborotni qayta ishlash va qaror qabul qilishda, oʻz vaqtida ishonchli va kerakli hajmda axborot olish, avtomatlashtirilgan ofislar tashkil etish, kompyuter va aloqa vositalarini qoʻllagan holda tezkor majlislarni oʻtkazish uchun moʻljallangan zamonaviy axborot tizimini yaratishga imkon beradi.[5] Bugun jahon iqtisodiy tizimi zamonaviy axborotlashgan jamiyatga kirib borayapti ekan, bunday jamiyat elektron mehnat qurollariga asoslangan boʻlib, sifat jihatidan yangi boshqarish apparati hamda axborot-kommunikatsiyalar texnologiyalaridan keng miqyosda samarali foydalanish kabi jihatlari bilan tavsiflanadi” XXI asr – yuksak texnologiyalar asrida jahon mamlakatlari iqtisodiy oʻsishining asosiy sharti – bu ularning barcha sohalarni qanchalik darajada raqamlashtirilishi bilan bogʻliq boʻlib qoladi. Shuningdek, yagona axborot tizimini tashkil qilishdan asosiy maqsad – yoshlarning zamon talabiga mos fikrlay olishiga, ma’naviy ulgʻayishiga, jahon innovatsion gʻoyalaridan habardor boʻlishiga va ana shunday innovatsion gʻoyalarni tizimlashtirilishiga asoslangan.

Bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar aholining ma’lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini oʻzlariga ma’qul boʻlgan yoʻnalishda oʻzgartirish, diniy ekstremizm, axloqsizlik kabi buzgʻunchi gʻoyalarni singdirishga urinishdek koʻrinishlarda sodir boʻlmoqda. Hozirgi tahlikali zamonda internet tarmogʻi orqali tarqatilayotgan gʻarazli ma’lumotlar, turli buzgʻunchi gʻoyalar, odob-ahloqni yemiruvi manfur illatlar har bir ongli kishini tashvishga solishi aniq.

Keyingi paytlarda internet bilan bog‘lik buzg‘unchiliklar, global tarmoqdan qabih maqsadda foydalanayotganlar ko‘payib bormoqda. Oqibatda, zalolatga boshlovchi elektron nashrlar va videolavhalar keng yoyilmoqda.

Internetdan olingan narsa to‘g‘ri, ishonchli va zararsiz ekanini bilish kerak. Yaxshi-yomonning farqiga bormagan yoshlar internet orqali tarqatilgan har qanday ma’lumot-xabarlarni haqiqat deb qabul qilayotgani jiddiy xavotirga soladi. Islom ta’limoti buzg‘unchilikni, odamlar qalbiga vahima, dushmanlik va fitna urug‘larini sochishni qattiq qoralaydi. So‘nggi yillarda dinni o‘zlariga niqob qilib olgan oqimlar, toifalar paydo bo‘ldiki, ular g‘arazli maqsadlari yo‘lida jamiyatda buzg‘unchilik, begunoh odamlar qonini nohaq to‘kish kabi jinoyatlarni avj oldirib, fuqarolar tinchligini buzib, xalq orasida nizo chiqarishga harakat qilishmoqda. Sarhadsiz internet dunyosiga kirgan shaxs vaqt, umr g‘animat ekanini doimo yodda saqlamog‘i lozim. Zero, bu global tarmoq bepoyon hududlarga ega bo‘lib, unda inson adashib soatlab, kunlarini samarasiz o‘tkazib yuborishi mumkin.

“Hozirgi kunda internet, mobil aloqalar orqali turli targ‘ib qilinayotgan fundamentalistik, ekstremistik targ‘ibotlarga to‘la diniy kanal oqimlari deyarli hammasi urf-odat, madaniyat va milliy ongni o‘zgartirishga yo‘naltirilgan targ‘ibotlardir. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, aholining yetmish foizi TV, radio, gazeta jurnallar emas, diniy, siyosiy, huquqiy, ko‘ngil ochar mazmundagi axborotni internetdan oladi. O‘zbekiston aholisini 21 mln.ga yaqinini 16 yoshdan 29 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil qilsa, bu qatlamning 80 foizdan oshig‘i asosiy ma’lumotni faqat internet qidiruv kanallari orqali oladi” [6]

Lekin bu tarmoqlarda din omili bilan bog‘liq masalalar qanchalik filtrlangan bu ham katta savol. Shuning uchun ham zamonaviy O‘zbekiston siyosatida olib borilayotgan strategik yo‘nalishlar, Uchinchi renessans, yoshlar siyosati, ijtimoiy himoya, ma’naviyat, kitobxonlik hammasi tizimli ravishda mana shu turgan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. Xususan, Imom Buxoriy xalqaro markazi, Islom sivilizatsiyasi markazi ishlarini butunlay yangi darajaga olib chiqilishi, Toshkent Islom universitetiga xalqaro universitet maqomining berilishi din bilan bog‘liq sotsial institutlar tizimining kuchaytirilayotganining ifodasidir.

“Identiklik (identifikatsiya) - aynanlik, mansublik, o‘xshashlik) atamasi - shaxs tomonidan o‘zining qaysi sotsial guruhga mansubligi hamda shu sotsial guruh doirasida ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy, maishiy, ahloqiy stereotiplarga amal qilinishi”ni ifodalaydi. Tadqiqotlar doirasida «Identiklik», «Etno identiklik», “Milliy identiklik” kabi tushunchalar o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab o‘zining nazariy va metodologik asoslariga ega bo‘lib kelmoqda.[7]

“Identiklik - milliy, etnik, kasbiy, hududiy, diniy-konfessional, gender va boshqa turlarga bo‘linib, ushbu turlar o‘z qamrovidagi insonlarni iqtisodiy, siyosiy, maishiy, ma’naviy, madaniy, mental jihatdan hayot tarzida ma’lum stereotiplar hosil qilishi, fikrlash, xulq-atvor, psixologik holatlar o‘xshashligi natijasida ijtimoiy guruh yoki qatlamlarni yaratish bilan xarakterlidir” Diniy identiklik – nafaqat ma’lum dindan xabardorlik, balki o‘zining diniy jamoaga mansubligini idrok etish, tushunish, baholash hamdir.

Xulosa. Zamonaviy globallashuv va raqamli axborot makoni kengaygan davrda yoshlar ongiga ta’sir etuvchi eng kuchli vositalardan biri bu – mediamakon hisoblanadi. Mediamakon, ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda beqiyos rol o‘ynaydi. Shu sababli, bu maydonni nazorat qilish, unga sog‘lom, ma’naviy boy kontentlarni singdirish zarurati dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. – Toshkent, 2021. – B. 288.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. // https://lex.uz/docs/368627

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4436 Qarori, 2019-yil 4-sentyabr. https://lex.uz/ru/docs/-4500897

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–158-sonli Farmoni // https://lex.uz/ru/docs/6600413

5. Мирзиёев Ш. М. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқи. Халқ сўзи. 2016-йил, 15-декабрь

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ёшлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.// https://president.uz/uz/lists/view/4463

7. Karimov I. A. Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish - oliy saodatdir. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2007.